

## TURLI TIZIMLI TILLARDA MUROJAAT SHAKLLARI MASALASI

**Mamajonov Muhammadjon Yusufjonovich***Farg'ona davlat universiteti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***Uktamov Muxammadkarim Vaxobjon o'g'li***CAMU xalqaro tibbiyot universiteti o'qituvchisi**Uktamovmuhammadkarim@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Murojaat shakllari ma'lum bir holatlarda kishilar o'rtasidagi qarindoshlik, do'stlik va yaqinlik munosabatlarini mustahkamlaydi. Bunday munosabatlarni murojaat shakllari orqali ifodalash fatik kommunikatsiya termini bilan yuritiladi. Nutqiy etiketning muhim komponentidan biri – murojaat. Murojaat kundalik hayotimizda faol qo'llanuvchi til birligidir. Shu sababli uni o'rganish hamisha olimlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Shuningdek, turli tizimli tillarda murojaat shakllari masalasi bugungi kunga kelib tilshunoslikda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.*

**Kalit so'zlar:** *Murojaat shakllari, turli tizimli tillar, salomlashish turlari, ijtimoiy struktura, qiyosiy frazeologiya, funksional-semantik sinonim, frazeologizm, tidorenese, uzus, kommunikantlar statusi, nutqiy va nonutqiy muomala*

Murojaat nutqning ham og'zaki, ham yozma turida uchraydigan til birligidir. Shu sababli uni o'rganish hamisha dolzarb. Murojaat shakli tadqiqi haqida fikr yuritilganda, avvalo, Germaniyaning Kiell universiteti olimlarining xizmatini ta'kidlab o'tish joiz. Taniqli nemis tilshunosi Verner Vinter (Werner Winter) 1975-yil yozida Kiell universitetida “Seminar für Allgemeine und Indogermanische Sprachwissenschaft” (umumiy va indogerman tilshunosligiga bag'ishlangan seminar) nomli ilmiy seminar o'tkazdi<sup>10</sup>. Ushbu ilmiy seminar tildagi ijtimoiy strukturaning ifodasiga bag'ishlangan, unda murojaat shakllarining tadqiqiga alohida o'rin berildi. Seminarda tilshunos V.Vinter rahbarligida tayyorlangan murojaat shakllarining o'rganilishiga oid “Reflection of social structure in natural languages: address behavior” nomli loyiha tasdiqlandi va uni amalga oshiruvchi bir guruh tilshunos olimlar jamoasi tuzildi. Bu loyihada tildagi ijtimoiy strukturaga lingvistik indikatorlarning namunasi deb qaraldi. Loyihaning maqsadi tildagi murojaatning ijtimoiy xususiyatlari haqida informantlardan ma'lumotlar olish uchun so'rovnomalar tuzish hamda qo'lga kiritilgan materiallarni jamoa tomonidan tashkil qilingan “Anredforschung” (murojaat shakllarining tadqiqi) nomli maqolalar to'plamiga kiritish bo'ldi.

Nemis lingvisti Armin Koxz, mazkur guruh a'zosi, murojaat shakllari va salomlashishlarning turlariga bag'ishlangan<sup>11</sup> kitob muallifi. U o'z tadqiqotini loyihada

<sup>10</sup> Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 14. <https://doi.org/10.1515/9783110848113>

<sup>11</sup> Юкоридаги манба: Braun Friederike. – P. 14.

belgilangan maqsadga asoslanib olib bordi. Loyihaning bosh maqsadi – barcha tillardagi murojaat sistemalari va namunalari haqidagi ma'lumotlarni to'plash edi. U ikki usulda amalga oshirildi: 1) murojaat shakllari haqidagi barcha nashr qilingan ishlarni o'rganish; 2) mahalliy tilda gaplashuvchi informantlardan murojaat xulq-atvori haqida so'rovnoma o'tkazish. Loyiha uchun bir ming bir yuzdan ortiq murojaat shakllari to'plandi, tadqiq qilindi hamda ilmiy sharhlanib, xulosalandi<sup>12</sup>.

Murojaat shakllari mavzusi hamisha har qanday til tizimida tadqiqot obyekti o'laroq muhim<sup>13</sup>. Jumladan, ingliz tilshunosi Maykel Formentali Britaniya akademik muhitida murojaatlar strategiyasi haqida ilmiy ish olib bordi. Bu tadqiqot ta'lim muassasalarida talabalar va o'qituvchilar tomonidan nutqiy faoliyatda ishlatiladigan murojaat strategiyalarini ochib berishga qaratildi. Tadqiqotchi ilmiy ish materiali uchun yarim tuzilgan intervyular, akademik audio va video yozuvdan foydalandi. Natijada muloqotchilar o'rtasida assimetriya borligini ko'rsatdi, talabalar o'qituvchilariga rasmiy murojaatlar (title + surname, honorifics), o'qituvchilar esa norasmiy murojaatlarda (the students first name and such informal expressions) murojaat qilishi isbotlab berildi.

Tilshunos I. Mauludning izlanishlari esa ingliz va tidorenese tillaridagi murojaat shakllarining sotsiolingvistik xususiyatiga bag'ishlandi<sup>14</sup>. Uning tadqiqoti ingliz va tidorenese (Indoneziyada joylashgan Timor oroli mahalliy xalqining tili) tillari murojaat shakllarining vaziyat va kontekstga asosida muloqotchilar orasida murojaat shakllari tanlanishining xususiyatini ochib bergan. U chog'ishtirilayotgan ikkala til murojaat shakllari strukturasi va funksiyalarining o'xshash jihatlarini ta'kidlab o'tsa-da, shu bilan birga, quyidagi to'rtta asosiy farqni ham aniqlab berdi: 1) oila a'zosi va oila a'zosi bo'lmagan suhbatdoshlar orasidagi murojaat shakllari: tetedotu, nene baba va h.; 2) dinga oid murojaatlar: sowohi, haji, ustadz va h.; 3) yaqinlikni anglatuvchi murojaatlar, masalan, ism, familiya, taxallus va laqab kabilar; 4) tidorenese tilidagi kishilik olmoshlariga mansub murojaatlar: “men” uchun fangare, fangato, fajaru fajato, ngori, ngoto shakllari va “siz” olmoshi uchun esa jou, jongon, ngona, ngon kabilar qo'llanadi<sup>15</sup>.

Tidoreneselar har doim ijtimoiy o'zaro munosabatlarida murojaat terminlari o'laroq qarindoshlik terminlaridan va kishilik olmoshlaridan faol ishlatilishi isbotlandi. N.V.Kxangga ko'ra, murojaatlar muloqotda so'zlovchi yoki tinglovchini nomlash uchun qo'llanadigan so'zlardir. U vetnam tili murojaatlarini ingliz tili bilan chog'ishtirib o'rgandi va vetnam murojaat shakllarini nutqiy faoliyatda qo'llash ingliz tilidan ko'ra murakkabroq ekanligini isbotlab berdi. Masalan, agar hozirgi zamon ingliz tilisida “you” (siz) murojaat shaklini qo'llamoqchi bo'lsangiz, birlik va ko'plikda ikkinchi shaxs o'laroq faqat bitta shaklini xuddi sir, Mr. Michael, daisy va boshqalar kabi ishlatasiz.

<sup>12</sup> Юкоридаги манба: Braun Friederike. – P. 15.

<sup>15</sup> Afful J. B. Address Terms among University Students in Ghana: A Case Study // Language and Intercultural Communication, 6(1) 2006. – P. 76-91. – <http://doi:10.1080/14708470608668909>;

Vetnam tilida esa ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari birlikda “bạn, anh, chị...”, ko’plikda esa “các bạn, các anh, các chị...” kabi bir nechta shakllari mavjud<sup>16</sup>. Bu olmoshlardan oldin ba’zi hollarda sonlar ham ishlatiladi. V.V.Zvyagintsevaning “Oila diskursida murojaat” nomli dissertatsiyasi rus va ingliz oilaviy munozaralaridagi murojaatlarning funksional xususiyatlariga bag’ishlangan. Tadqiqotda murojaatlar oila nutqi misolida pragmatik va semantik jihatlarini ingliz va rus tillarini qiyoslash orqali ochib berilgan. Oila nutqi murojaatlarining nutq aktlari nazariyasi nuqtai nazaridan kommunikativ funksiyalari aniqlandi.

Uzusni (so’zning qabul qilingan qo’llanilishi) nutqiy va nonutqiy muomalaning yig’indisi deb tushunib, bir madaniyatni uzual, boshqa madaniyatni esa nouzual deb qarash mumkin. Shu nuqtai nazardan bu kabi murojaatlarni tilshunoslar D. Ivanov, B. Pilnyak yapon tili materiallari asosida qarab chiqib, murojaatning bunday “to’ntarilgan” turlari mavjudligi haqida, ya’ni Yaponiyada birinchi o’rinda familiya, keyin esa ism, undan keyin lavozimi, martabasi qo’yilishini<sup>17</sup> ta’kidlaydilar.

Zamonaviy vengerlar nutqiy etiketidagi murojaatlarni, salomlashish va xayrlashishlarni ta’riflab J.Lendel<sup>18</sup> murojaat tanloviga ta’sir etuvchi omillarni quyidagicha ajratadi: kommunikantlar statusi, aniqrog’i u yoki bu kommunikantning ijtimoiy statusi bilan bog’liq bo’lgan nufuz darajasi; kommunikantlar yoshining absolyut va nisbiy munosabatlari; adresat va adresant jinsi; “o’ziniki-begona”, “tanish-notanish” tushunchalari bilan ta’riflanadigan yaqinlik darajasi.

Tadqiqotchi Zxou<sup>19</sup> Xitoy va Amerika ingliz tillarining murojaat terminlari o’rtasidagi farqlanishlar haqida ilmiy ish olib bordi. U xitoylik hamda amerikaliklar orasida so’rovnomaga o’tkazish orqali oila a’zosi bo’lmagan shaxslarga qanday murojaat terminlarini ishlatilishini tahlil qildi. Tadqiqotchi ikki til orasida mavjud bo’lgan uzoq madaniy an’analar yoki ijtimoiy omillar ta’siri ostida kelib chiqqan farqlanishlarni aniqlab berdi. Uning tahlili shuni ko’rsatdiki, xitoy tilida oila a’zolariga mansub murojaat terminlarining funksiyalari kengroq, ular oila a’zosi bo’lmagan shaxslarga nisbatan ham qo’llanadi, bu holat esa Amerika inglizlari tili uchun noodatiy deb qaraladi. Misol uchun xitoyliklar grandpa, grandma, aunt, uncle, brother, sister kabi murojaatlarni do’stlari, hamkasblari yoki ota-onalarining do’stlari kabilarga nisbatan

Brown R. & Ford M. Address in American English // The Journal of Abnormal and Social Psychology, 62(2), 1961. – P. 375-385. – <https://doi.org/10.1037/h0042862>; Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – Pp. xiv + 374. – <https://doi.org/10.1515/9783110848113>; Bates E. & Benigni L. Rules of Address in Italy: A Sociological Survey // Language in Society, Vol. 4, No. 3 (Dec.,1975). – P. 271-288 (18 pages). Published By: Cambridge University Press.

University Press, 2001. – <https://www.jstor.org/stable/4167978>; Keshavarz M. H. The role of social context, intimacy, and distance in the choice of forms of address // International Journal of the Sociology of Language, 2001.

<sup>17</sup> Юкоридаги манба:Тарасов Е.Ф.– С. 31.

<sup>18</sup> Лендел Ж. Обращения, приветствия и прощания в речевом этикете современных венгров// Национальнокультурная специфика речевого поведения. – Москва: Наука, 1977. – С. 14–38.

<sup>19</sup> Xingying Z. The comparison of terms of address between Chinese and American English // Journal of Guangdong Education College 1, 1998. – P.88–92. [https://naccl.osu.edu/sites/naccl.osu.edu/files/22\\_qin-x](https://naccl.osu.edu/sites/naccl.osu.edu/files/22_qin-x)

ham ishlatishadi. Biroq Amerika inglizlari tilida oilaga mansub bo'lmagan shaxslarga umumiy ijtimoiy murojaat terminlaridan foydalanishadi: Mr., Ms., Miss yoki ism. Ikkinchidan, unvonlar bilan murojaat qilish xitoy tilida boshliqlarga nisbatan tez-tez ishlatilsa, Amerika inglizlari tilida bu turni nutqda qo'llashni ortiqcha deb bilishadi. Murojaatning amerikacha tizimida murojaat shaklini tanlashda yosh ahamiyatsiz ko'rsatkich, faqat yoshdagi farq butun bir avlodni tashkil etganda u ahamiyat kasb etishi mumkin. Ingliz tilining amerikanacha varianti sohiblari uchun murojaatni tanlashda "muloqot vaziyatining formallik darajasi, kommunikantlarning jinsi va yoshi, shuningdek, ular o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik masofa kabi sotsiologiyistik parametrlar ahamiyatga ega bo'ladi. Suhbatdoshlar o'rtasida status va muloqot-rolga oid munosabatlar faqat ba'zi bir formallashgan (ammo formalistik emas), ya'ni xizmat ko'rsatish sohasida xodimlarning mijoz bilan muloqoti vaziyatlarida murojaatni tanlashga ta'sir etadi"<sup>20</sup>. Ammo ingliz tilining amerika variantida ko'proq noformal nutqiy strategiyalarga tayaniladi.

E.Mayol va D.Milsted yumor bilan ta'kidlashganidek, ichidan shunga intilmasalar ham, har xil qoidalarga rioya qilishlarini namoyish etadilar. Kundalik muloqotda ular bir-biri bilan uncha rasmiyatchi emas. Inglizlar agar ijtimoiy ma'noda o'zini, ayniqsa, benuqson deb his etsa, o'zining xayrixohligini va zavq-shavqini bajonidil namoyish etadilar. Boshqa tomondan, ular bir-biriga birdaniga bir necha inglizni tanishtirganda, ularni bir-biri bilan va haddan tashqari xushmuomalalik bilan salomlashishlari shunchalik darajada davom etadiki, natijada ular bir-birining ismini esdan chiqarishga ulgurishadi va tanishish jarayoni yangidan boshlanishi mumkin.

Shunday qilib, turli tillarda murojaat shakllarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, murojaat murakkab va xilma-xil tizim o'laroq o'zidan keyin keladigan qator vaziyatlarga (ular har bir madaniyatda murojaatni tanlashda turlicha ta'sir ko'rsatadi) bog'liq holda murojaatning u yoki bu turini qo'llaydigan millatning milliy-madaniy, lingvistik, ijtimoiy, kommunikativ-pragmatik va boshqa xususiyatlarini aks ettiradi.

#### FOYDALANILGAN MANBALAR:

- 1.Umarova N., Zokirov R., Dusmatov X., Amonov M., Mamajonov, M. (2020). Frame Structure Of The Concept" Gold" In Navoi's Poem" Iskander's Wall". Psychology and Education. Journal, 57(8), 542.
- 2.Mamajonov M.(2021). On the communicative and functional properties of anthroponyms in dialogical discourse. Theoretical & Applied Science, (6), 534-537.

<sup>20</sup> Велтистова А.В. Обращение в современном английском языке (в сопоставлении с русским): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ленинград, 1964. – 22 с; Стернин И.А. Коммуникативное поведение в структуре национальной культуры //Национально-культурная специфика речевого поведения. – Москва: Наука, 1977. – С.

3. Mamajonov M. (2020, December). Place of anthroponyms as discourse relevant. In Конференции.
4. Mamajonov, M. Y. (2021). Anthroponyms in folklore and their ethnocultural features. Theoretical & Applied Science, (6), 553-555..
6. Mamajonov M. (2019). Антропонимлар дискурс релевант сифатида. Fardu. Ilmiy xabarlar. – Научный вестник. ФерГУ.
7. Mamajonov M. (2015). Киши исми билан боғлиқ мурожаат шакллари. «тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации».
8. Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 14. <https://doi.org/10.1515/9783110848113>
9. Nguyễn Thùy Linh. – P. 68.
10. Юқоридаги манба: Тарасов Е.Ф.– С. 31.
11. Лендел Ж. Обращения, приветствия и прощания в речевом этикете современных венгров// Национальнокультурная специфика речевого поведения. – Москва: Наука, 1977. – С. 14–38.
12. Велтистова А.В. Обращение в современном английском языке (в сопоставлении с русским): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ленинград, 1964. – 22 с;
13. Стернин И.А. Коммуникативное поведение в структуре национальной культуры //Национально-культурная специфика речевого поведения. – Москва: Наука, 1977. – С.